Q M U
MEN MAĞRIPAT
IZLER EDIM
BERDAQ
Yutbashemiz inam etken al Yasil
Qutli bolsin liygen jana lipasin
Bas iyemen jerge tiygenshe basi
Ka'bam- Qaraqalpaq universi

САТТАРОВ Б, ЮЛДАШЕВ Ш, САГДУЛЛАХУДЖАЕВ С. ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ В ЗАРУБЕЖНОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ 70-75
AZIZOVA M.A. THE DEVELOPMENT OF LEXICOLOGICAL UNITS IN THE LANGUAGE.....76-79
ISMATOVA SH. ASAR TARJIMALARIDA KOMPONEN-TLARNING O'RNINI O'RGANISH MASALALARI 80-84
Begov F . TARJIMA NAZARIYASIDA QO'SHQONOTLI SO'ZLARNI O'RGANISH MASALALARI.....84-87
SODIQOVA M, BUXAROVA N. FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI O'ZIGA XOSLIKLAR 87-90
СУЛЕЙМАНОВ Ф, ҚУРБОНОВА Н,АБДУРАХМОНОВА А. ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАРЖИМА МАСАЛАЛАРИ *(Ўзбек ва инглиз ижодкорлари асарлари мисолида)*.....90-93
НАЗАРОВА З. STYLISTICS OF TRANSLATION.....93-97
С.ДЖАЛОЛОВА. ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ СТУДЕНТОВ РЕЛИГИОЗНЫХ ВУЗОВ.....97-101
YU.I.QURBANOVA. SAID AHMAD ASARLARI XORIJIY TILLARDAGI TARJIMALARINING LINGVO-MADANIY MASALALARINI TADQIQ ETISH.....101-107
АКБАРХОДЖАЕВА Ф. НАЗМ ЖАНРИДА РЕАЛИСТИК ТАРЖИМА ТАМОЙИЛЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ.....107-112
РЎЗИБАЕВА Н. ТАРЖИМАДА ТЕРМИНОЛОГИК СЎЗ БИРИК-МАЛАРИ КОМПОНЕНТЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ МАСАЛЛАРИ.....112-120
СОВЕНЬКО О.В. С. ЕСЕНИН НА СТРАНИЦАХ ГАЗЕТЫ «ТРУД» (1924-1926 годы).....120-126
ТАРЖИМАДА ИФОДАЛАШДА СИНОНИМЛАРДАН ФОЙДА-ЛАНИШ.....126-130
САТТАРОВА Б. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИГА ОИД ТЕРМИНАЛОГИЯЛАРНИТАДҚИҚИ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ *(немис терминалогияси мисолида)* 130-135
NEBARAYEVA Z. G'ARB IJODKORLARI POETIKASINING XUSUSIYATLARI *(nemis adabiyoti misolida)*.....136-138
АХМЕДОВА М. СЎЗ МАЪНОСИ - ИНСОН БОЙЛИГИ.....139-144
ХОНБОБОЕВА Ш. ТАРЖИМА ТИЛНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ.....145-148
XUDAYMURATOVA K.,OMONOV A, SAYDULLAYEVA M. KOLORONIMLARNING LINGVAMADANIY XUSUSIYATLARINI O'RGANISH MASALALARI *(nemis va o'zbek tillari misiolida)*..... 148-151
ГАЮБОВА К. А., ЮЛАНОВА Н.Д. ЎЗБЕК ТИЛИДА ҚЎШМА ГАПЛАР ҲАМДА УЛАРДАГИ ВОҚЕАЛАР ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТ 152-157
М.Х НУРМАТОВА. ИНСОННИНГ ХУЛҚИГА ДОИР ФЕЪЛЛАРНИНГ КОГНИТИВ ТАҲЛИЛИ.....157-162

ПЕДАГОГИКА
(методика)

ҚИЯМОВА М.С.ХОРИЖИЙ ТИЛ ТАЪЛИМИНИНГ ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚЛИГИ.....163-168
РАСУЛОВА С. СОВРЕМЕННЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ..... 168-171
АХМЕДОВА Ш , ҚАЮМОВА Ш. USING MODERN INFORMATION

6.http.www.ziyo uz.com/jahon-nashri-antologiys/o- genry.
7.www.interturecollection.com./a/o. henry/. NEINEMANN ELT GUIDED READERS. O.Henry. The last leaf and Other Stories.
8. http.www. ru.B.A.. Павленко.Деталь в творчестве Франца КафкиЖ сушность и функционирование.

Begov Fayzullo -
TIQXMMI Ingliz tili kaf. muduri.

TARJIMA NAZARIYASIDA QO'SHQONOTLI SO'ZLARNI O'RGANISH MASALALARI

Аннатация:

В данной статье рассматриваются вопросы парных словосочетаний в теории перевода.

Kalit so'zlar: *tarjimaviy usullar, nazariya,* tillararo transpositsiya, qo'shqonotli so'zlar.

Adekvatlikka erishishning tarjimaviy usullariga o`tishdan oldin matndan uzib olingan alohida misollarning ko`rish unchalik maqbul bo`lmagan, lekin bunday holatlarda zarur bo`lgan amaliyotdir. Haqiqatdan ham, tarjimon tomonidan amalga oshirilayotgan tanlovda asosiy rolni vaziyat va qism va butunning nisbati (so`zlar va gaplar, gaplar va mulohazalar) o`ynaydi. U esa umumiy va birlikning dialektikasiga asoslanadi. Birlik (alohida elementlarning) ishoncliligi faqatgina butunning (matnning) adekvatligi fonida baholanishi mumkin; ko`pincha tarjimonga butunning adekvatligi uchun birliklarni qurbon qilishiga to`g`ri keladi. Ye. D. Kalashnikov: "Asliyatda bunday deb hech qachon tayanmang. Asliyatda albatta unday emas" deydi. Adekvatlikka erishishning tipik usullarining hech qanday ifodasi amaliyotda uchraydigan barcha holatlarni qamrab ololmaydi. Tarjimon ifodalanayotgan almashtirishlarda tayyor retseptlarni ko`rmasligi lozim, chunki uning imkoni yo`q. Tarjima, nutq ga doimo ijodiy jarayondir. Tarjimaviy almashtirishlarning prinsiplarini tushunish uni amaliy ishda qo`llay olishga o`rganish muhimdir. Tarjimon doimo ti tilning "tarjima qilayotgan tili va qaysi tilga tarjima qilinayapti" - mag`ziga kirib kerak. Tarjimaviy almashtirish (transformatsiyalarning) tiplarinig bir nec klassifikatsiyalari mavjud. Ularning barchasi shartlidir, turli tipd transformatsiyalar orasida to`siq devor yo`q. Bir xil transformatsiyalarning

ba`zan tortishuvli holatlarni tasvirlashi mumkin, ularni turli tiplarga kiritish mumkin. Lekin bu tamoyillarni tushunish va ularni amaliyotda qo`llash unchalik muhim emas. L.S. Barxudarov ortidan biz barcha tarjimaviy transformatsiyalarni (ekvivalent almashtirishlarni) to`rtta elementar tipga tegishli qilib olamiz:

1. o`rin almashtirishlar; 2. almashtirishlar; 3. qo`shishlar; 4. tushirishlar.

Transformatsiyalarning har bir tipi kompleks xarakterga ega.

Qo`shqanotli so`zlarda rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda o`rin almashtirishlar uchrab turadi. Bu yerda gap tarjima tili matnida chet tili matniga nisbatan mulohaza elementlari yoki gaplar kelish tartibini o`zgartirish haqida ketyapti. O`rin almashtirishlar sababi, chet tili va tarjima tilining sistema va norma darajasida mos kelmasliklari, shuningdek, tarjima matnini umumiy strukturalash bilan bo`g`liq bo`lgan sof stilistik tasavvurlar bo`lishi mumkin. Barcha o`rin almashtirishlarda faoliyat ko`rsatuvchi eng muhim pragmatic filtr quyidagidan iborat: o`rin almashtirishlar natijasida mulohazaning pragmatic substrukturasi va funksional perspektivasi o`zgarmasligi kerak.

Tarjimada almashtirishlarning turli - tuman imkoniyatlarini e`tiborga olgan holda ularni shartli ravishda orasida chegarani ajratish qiyin bo`lgan guruhlarga bo`lamiz.

Umumiy tipdagi almashtirishlar. Bu guruhda tillararo transpositsiya (nutq qismlarini almashtirish) hodisalari, darajalararo almashtirishlar, ya`ni chet tili va tarjima tilida ekvivalent qiymatlarning turli daraja birliklari yordamida ifodalanishi, shuningdek gaplarning kommunikativ tiplarini almashtirish ko`riladi. Tarjimada nutq qismlarining almashtirishlarinig sababi chet tili va tarjima tili orasidagi sistemali mutanosiblik bo`lishi mumkin. Rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda sifatning ot qo`shimcha va boshqa konstruksiyalar bilan almashtirilishi o`rin almashtirish bilan amalga oshiriladi.

Leksik almashtirishlar chet tili va tarjima tillarining sistema, norma, uzus darajasida nomutanosibligi (mos kelmasliklari) yoki jamoa nutq ahloqining normalari mos kelmasligi sababli yuzaga keldi.

Tarjimaviy almashtirishlarning keyinga tipi bu konkretlashtirishdir, u chet tili matnidagi u yoki bu birliklarni tarjima tilidagi torroq, konkret qiymatli matn birligi bilan almashtirishdan iboratdir. Konkretlashtirish usulining qo`llanilishi ekstralingvistik xarakterdagi tasavvurlar bilan asliyat matnining pragmatic substrukturasini butun xajmini (konnotatsiyasi bilan birga) aniqroq yetkazib berishga harakat qilishi bilan izohlash mumkin. I.A.Uolsh va V.G.Berkov lug`atining kattagina qismini internatsional hisoblanib, rus tiliga kirgan, u yerda ular tarjimasining o`rnini to`liq egallab olgan tarjimon tahlili alohida qiziqishga ega bo`lgan qo`shqanotli so`zlar egallaydi. Masalan, “Буря в стакане воды (Bakzakning guvohligicha, Monteskyening ifodasi, lotin mataliga mos keladi) – A stone in a tea cup”

“Вавилонское столкновение – киёмат-аросат (тўс-тўполон). The building of the tower of Babel”.

“Всё моё ношу с собой - Hamma narsam o`zim bilan.– All I have I carry with me” (attributed by Cicero to Bias, one of the seven sages of Greece).

Generallashtirish – konkretlashtirishga teskari bo`lgan usul bo`lib, unda chet tilida torroq qiymatli birliklar tarjima tilidan kengroq ma`noli birliklar bilan almashtirilishidir. Metaforik almashtirishlar o`zgacha qiziqish uyg`otadi va har doim qiyindir. Bunday almashtirishlarning sababi bo`lib uzus darajasida mos kelmaslik hisoblanadi. Generallashtirish shuningdek birikish normalari darajasida ham asosolanishi mumkin.

Antonimik almashtirishlar – bu ham almashtirishlarning keng tarqalgan turi bo`lib tasdiqlovchi konstruktsiyani uning imkoni bilan yoki aksincha almashtirishdan iborat. Bunda chet tili matnining so`zlaridan biri uning tarjima tilidagi matnining antonimi bilan almashtiriladi.

Qo`shishlar – bu tarjimaviy almashtirishlarning shunday tipiki, u lug`atlarda ko`p uchraydi, ya`ni turli lingvistik va ekstralingvistik sabablarga asoslanib chet tilidagi matn bilan taqqoslaganda tarjima tilidagi matnning kengayishi holatlari uchraydi.

Tushurib qoldirishlar – qo`shishlarga qarama-qarshi bo`lgan kompressiya deb atalgan usuldir.

Xulosa qilib aytganda, qo`shqanotli so`zlarning rus tilidan ingliz tiliga tarjimasida tarjimaviy almashtirishlarning turli tiplarini ko`rish natijasi quyidagini ko`rsatdi: ularning sababi, tarjima tilida matnni tug`ilishida ishlatiladigan usullarning o`zi kabi tarjimaning funksional-kommunikativ modelida tushuntirishga ega bo`ladi. Tarjimaviy almashtirishlarda shakl va mazmun kategoriyalarining o`zaro aloqasi va o`zaro ta`sirining dialektik tabiati metodologik asos bo`ladi. Tarjima lingvistik va ekstralingvistik faktorlar o`zaro ta`sir etuvchi nutqiy-fikriy jarayondir. Tarjimaviy almashtirishlarning turli tiplardan ijodiy foydalangan holda bu faktorlarni o`lchash va hisobga olish – tarjimonning kasbiy malakasi va madaniyatining izohidir.

Har bir qo`shqanotli so`z alohida olib qaralganda o`zicha bir tugal asar degan so`z. Ular yalang`och holda emas, balki ko`pincha voqealar tahlili zamirida, tasvir ichida, muallif muddaosining lo`nda ifodasi,qaymog`i, kvint-essensiyasi sifatida , ba`zan"o`z-o`zidan", "bexosdan", "favqulotda", "qissadan-hissa" tarzida tug`iladi. Qo`shqanotli so`zlar muqarrar ravishda nimanidir tasdiqlashi emas, balki qat`iy rad etishi, qoralashu, shubha ostiga olishi ham mumkin. Uning zamirida tasdiq (tasdiqni tasdiq), inkor (inkorni inkor), hukm, muqoyasa, mubolag`a, kesatiq, piching, sifatlash,m o`xshatish hamda boshqa sillogizm yotadi. Qo`shqanotli so`zlarga voqealar xususiyatini loqayd qayd etish emas, balki ular mohiyatini qat`iy hukm ostida, timsollar vositasida, ko`pincha obrazlar va ehtiros bilan ifodalash xosdir. Hikmat muallif qalbidan bamisoli laxcha cho`g` bo`lib otilib chiqadi. Qo`shqanotli so`zlar majmuasi tartib berganda, ular o`z manbalaridan ajratib olingani tufayli, makro-kontekst, ya`ni voqea-hodisalar maydoni, zamini mavjud bo`lmaydi. Mana shu belgi va xususiyatlarning barchasi ularni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishda juda jiddiy qiyinchiliklar tug`diradi.

ADABIYOTLAR:

1. **Е.П.Калашников.** Теория перевода. Л: 1998.
2. **В.Г.Берков, И.А.Юлш**. Вопросы антоногомических обмена слов.//Ветник Нов.госуд.унив. Новосибирск, 1979.
3. **Salomov G`.** Tarjima nazariyasi asoslari T: o'qituvchi, 1983.
4. **Mamatov E.** O`zbek tili frazeologiyalarining shakllanish masalalari.T. 1999.

Sodiqova Maxbuba, Buxarova Nigora -
TDIU Ingliz tili kaf. o'qituvchilari

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI O'ZIGA XOSLIKLAR

Аннотация:

В данной статье рассмариваются переводы фразеологических единиц английского, русского и узбекского языков.

Kalit so'zlar : *til birliklari, leksik va frazeologik vositalar,til funktsiyalari.*

Til birliklari asosan leksik va frazeologik vositalardan iborat bo'lib, ularni ir tildan ikkinchi tilga o'girish tarjimon oldiga ma'lum qiyinchiliklarni o'ndalang qilib qo'yadi.

Ma'lumki, frazeologik birliklar tilning leksik birliklarga nisbatan birmuncha urakkab tarkibiy vositalari hisoblanadi. Chunki frazeologik birliklar nutqning adiiy – tasviriy vositalari sifatida fikrning oddiy bayonidan ko'ra ko'proq turli- man uslubiy maqsadlarning ifoda etishida ishtirok etadi. Ularning ushbu azifalarini tarjimada bejirim talqin etishi badiiy asarning obrazli xamda hissiy – sviriy qiymatini qayta yaratish bilan chambarchas bogliqdir.

Tarjimadagi u yoki bu frazeologik birlikning asl nusxa tarkibidagi azeologizmga ma'no va uslubiy vazifa jixatlaridan mos kelishi yoki elmasligini ilmiy – matniy tahlil asosidagina aniqlash mumkin. Leksik birliklar ngari frazeologizmlar ham ko'p ma'noli va ko'p vazifali bo'lganligi tufayli azmun jihatidan mos ikki til birliklari tarjimada har doim ham bir – birlarini mashtiravermaydi. Muayyan matniy holatda bir birlarini bemalol almashtira adigan frazeologik ekvivalentlar yoki muqobil variantlar boshqa bir holatda a'no berishlari yoki uslubiy vazifalari jihatidan farq qilib qolishlari mumkin. unday vazifalarda san'atkorning o'z mas'uliyatiga ijodiy munosabatda bo'lishi l nusxaning tarjimada noto'gri talqin etilib qo'yishi havfini bartaraf etadi.

«Frazeologiya masalalari va turli tillarda so`zlarning har xil birikishiga oid numiy muammo, tarjima amaliyoti bilan birga, tarjima nazariyasi uchun ham